

**YOSHLAR VA RAQAMLI MADANIYAT: HUQUQIY  
SAVODXONLIK VA ONLAYN XAVFSIZLIK**

***Uzbekova Go`zal Murat qizi***

*Toshkent Davlat Yuridik Universiteti*

*magistranti*

*E-mail: guzaluzbekova3@gmail.com*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada yoshlarning global raqamli makondagi mavjud xavf xatarlardan himoya qilish zarurati, bu borada raqamli madaniyatning tutgan o`rni va ahamiyati, yoshlarni raqamli muhitda mas`uliyatli va xavfsiz faoliyatini ta`minlash, milliy va xalqaro qonunchilikdagi o`ziga xos jihatlar, shu bilan birga, davlat tomonidan xavfsizlik va raqamli madaniyat va huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi masalalari tahlil qilinadi.

***Kalit so`zlar:*** Yoshlar, raqamli madaniyat, huquqiy savodxonlik, onlayn xavfsizlik, shaxsiy ma`lumotlar.

***Abstract:*** This article analyzes the need to protect young people from existing threats in the global digital space, the role and importance of digital culture in this regard, ensuring responsible and safe activities of young people in the digital environment, specific aspects of national and international legislation, as well as the development of measures by the state to improve security and digital culture and legal literacy.

***Keywords:*** Youth, digital culture, legal literacy, online security, personal data.

***Аннотация:*** В статье анализируется необходимость защиты молодёжи от существующих угроз в глобальном цифровом пространстве, роль и значение цифровой культуры в этой связи, обеспечение ответственной и безопасной деятельности молодёжи в цифровой среде, особенности национального и международного законодательства, а также разработка

*государством мер по повышению уровня безопасности, цифровой культуры и правовой грамотности.*

**Ключевые слова:** *молодёжь, цифровая культура, правовая грамотность, онлайн-безопасность, персональные данные*

### **Kirish**

Raqamli texnologiyalar jadal sur`atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularda raqamli savodxonlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, raqamli qaramlikni oldini olish har qachongidan dolzarb bo`lib qolmoqda. Bu esa global raqamli muhitda sog`lom va barqaror tarbiyani talab qiladi. Shu jihatdan raqamli madaniyat zamonaviy yoshlar hayotida muhim rol o`ynaydi. Ma`lumki, Ijtimoiy tarmoqlar, ta`lim platformalari va boshqa raqamli xizmatlar yoshlarning kundalik faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Bu makonda ular shaxsiy ma`lumotlar xavfsizligi, huquqbuzarliklar va noto`g`ri axborot tarqalishi kabi xavf-xatarlar bilan to`qnashishi mumkin. Bu esa o`z navbatida davlat va jamiyat oldiga ko`pgina masalalarni qo`yadi.

O`zbekiston Respublikasi qonunchiligida va xalqaro huquqiy hujjatlarda yoshlar huquqlarini himoya qilish, onlayn xavfsizlikni ta`minlash va huquqiy savodxonlikni oshirishga katta e`tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning raqamli madaniyatdagi huquqiy savodxonligi va onlayn xavfsizlikni ta`minlash amaliyoti muhim ilmiy va amaliy tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Yoshlar onlayn faoliyatda eng faol qatlam bo`lishiga qaramay, ko`plab holatlarda ularning bu borada huquqiy bilimlari yetarli deb ayta olmaymiz. Shu sababli, huquqiy savodxonlikni oshirish va xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Yoshlarning raqamli madaniyat kontekstida huquqiy savodxonligini oshirish va onlayn xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha muammolarni aniqlash, tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi davrda dolzarb hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

Raqamli madaniyat – bu zamonaviy texnologiyalar va internet muhitida shakllangan madaniy jarayonlar tizimi bo‘lib, u yoshlar hayotining barcha sohalariga ta’sir qiladi. Raqamli madaniyat yoshlarning ijtimoiy muloqoti, bilim olish, ijodiy faoliyati va kundalik turmush tarzida ko‘rinadi.

Huquqiy savodxonlik – shaxsning o‘z huquqlari va majburiyatlarini bilishi, qonuniy normalarga rioya qilishi va ularni onlayn muhitda qo‘llay olishi qobiliyatidir. Raqamli madaniyat kontekstida bu yoshlarning shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kontent yaratishda intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish va kiberxavfsizlik qoidalarini bilishini o‘z ichiga oladi.

Onlayn xavfsizlik – shaxsiy va jamoaviy ma’lumotlarni kiberhujumlardan, tahdidlardan va suiiste’mollardan himoya qilishdir. Kiberxavf turlari: shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, tahdidli xabarlar, firibgarlik, zararli dasturlar va noto‘g‘ri axborot tarqalishi.

Milliy va xalqaro qonunchilikda ko‘plab huquqiy hujjatlar aynan yosh avlodning raqamli davrning global tahdidlaridan himoya qilishga asoslangan. Xususan:

- Milliy qonunchilikda: O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi normativ hujjatlar.
- Xalqaro standartlarda: GDPR (Yevropa Ittifoqi), UNICEF tavsiyalari va boshqa global huquqiy me’yorlarni alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Shu o‘rinda yoshlar o‘rtasidagi raqamli madaniyatni oshirish borasidagi asosiy masalalar nimalarda namoyon bo‘ladi, degan asosli savol tug‘iladi. Biz buni quyidagi jihatlarida ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, yoshlar orasida huquqiy savodxonlik darajasining yetarli emasligi, yoki umuman shakllanmaganligi. Ko‘pchilik yoshlar onlayn xavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalarini yetarli darajada bilmaydi.

Ikkinchidan, Eng ko‘p uchraydigan onlayn huquqbuzarliklar: tahdidli xabarlar, shaxsiy ma’lumotlarning ruxsatsiz tarqalishi, intellektual mulk

huquqlarining buzilishi.

Uchinchidan, O'zbekiston qonunchiligi ko'plab holatlarni qamrab olsada, yoshlar uchun huquqiy bilimni oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratining mavjudligi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilishda quyidagi jihatlarni amaliy tavsiyalar sifatida keltirishimiz mumkin:

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida raqamli madaniyat va huquqiy savodxonlik bo'yicha maxsus kurslar maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va shu bo'yicha maxsus kurslar joriy qilish;

Onlayn platformalarda yoshlarni xavfsizlik bo'yicha ogohlantirish tizimlarini takomillashtirish va interaktiv ta'lim materiallari yaratish.

Huquqiy maslahat xizmatlarini yoshlar uchun qulay va onlayn shaklda tashkil etish.

Raqamli xavfsizlik, raqamli madaniyat bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish va yoshlarni bu jarayonlarga faol jalb qilish.

### **Xulosa**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar yoshlar orasida axborot olish, bilim egallash va muloqot qilish usullarini tubdan o'zgartirdi. Raqamli madaniyat yoshlar ongini shakllantirishda, kreativ fikrlashni rivojlantirishda va jamiyat bilan faol integratsiyalashishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bugungi davr bizdan raqamli muhitdagi xavfsizlik, ma'lumotlarning ishonchliligi va axloqiy masalalarga e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Yoshlarni raqamli madaniyatini shakllantirish va ularning onlayn faoliyatini maqsadli va mas'uliyatli tarzda yo'naltirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, raqamli madaniyat yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib, ularni zamonaviy jamiyatning faol a'zolariga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023).
2. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida Qonun. 2019.
3. Axborotlashtirish to'g'risida Qonun. 2003.
4. Elektron hukumat to'g'risida Qonun. 2015.
5. Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi. 2020.
6. GDPR (EU), 2018.
7. Karimov B. Axborot xavfsizligi va konstitutsiyaviy huquqlar. T.: TDYUI, 2022.